



# TIQXMMI-MTU



FAN:

Yerdan foydalanish asoslari

1

•MAVZU: YeR-TABIYY RESURS HAMDA XALQ  
XO'JALIGI TARMOQLARINING ISHLAB CHIQARISH  
VOSITASI SIFATIDA

»



Khafizova Zulfiya  
Kholmuratovna



Yer resurslarini boshqarish  
kafedrasi katta oqituvchisi



# Reja:

1. Табиий ва ер ресурслари тушунчалари
2. Ер қишлоқ хўжалигида асосий ишлаб чиқариш воситаси
3. Ернинг бошқа ишлаб чиқариш воситаларидан фарқи
4. Ер билан ажralмас боғлиқ ишлаб чиқариш воситалари ва уларнинг иқтисодий аҳамияти
5. Халқ хўжалиги тармоқларидағи вазифалари

## 1. Tabiiy va yer resurslari tushunchalari

Qishloq xo'jaligida yer ishlab chiqarishning asosiy vositasi hisoblanadi.

U, bir tomondan inson uning èrdamida qishloq xo'jaligi ekinlarini ekib, mehnat vositasi vazifasini bajarsa, ikkinchi tomondan mehnat ‘redmeti vazifasini bajaradi va inson unga tafsir ko’rsatib zsimlik va chorva mahsulotlarini oladi. Xo’jalik tomonilan yegallangan yer qismlarga bo’linib, ular muayyan ishlab chiqarish yo’nalishiga egadir (qayta ishlovdagi shudgor, ‘artov yerlar, bo’z yerlar, qo’riq yerlar, ‘ichanzorlar, o’tloqlar, yaylovlar va ko” yillik ko’chatlar).




Ishlab chiqarish uchun foydalanilmaydigan qismlar: o'rmon, butazorlar, melioratsiyasi ko'chatlari, ko'llar, havzalar, va boshqa yer-suv mulklari (yo'llar, ariqlar, botqoqlar, qo'rg'on yerlari va h.). Qishloq xo'jaligi korxonasi yer fondiningbu ikkita qismga bo'linishi, ularning ichida esa alohida qismlarga bo'linishi o'zgarishsiz bo'lmaydi. Xo'jalik rivojlanishi jaraenida bitta yer-suv mulki boshqalariga, odatda, ekstensiv va intensivlariga o'tadi. Masalan, kam hosilli yaylovlar shudgorga, qo'riq va bo'z yerlar buziladi va h..



Tabiiy resurslar - bu ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishining hozirgi darajasida imkon beradigan, insoniyat moddiy va mahnaviy talablarini qondirish maqsadida foydalanilayotgan yoki foydalanilishi mumkin bo'lgan tabiat elementlaridir (mehnat predmetlari va vositalari, istehmol predmetlari).

*Mavzu: Yer tabiiy resurs –ishlab chiqarish vositasi.*

**Klaster. Tabiiy resurlar tushunchasi** (fikriy jarayonlarni ko'rgazmali tashkil etish o'qituvchi varianti)





## **Yer qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi**

**1 • Yer inson mehnati natijasi emas, balki tabiat mahsulidir;**





• 2. Yer kengligi  
cheklangan va uniig o'rnini  
boshqa hech nima bosa  
olmaydi;





2. Yerdan foydalario'da uni o'rnidan qo'zg'atib boshka joyga ko'chirib bylmaydi va undan faqat joylashgan yrnida foydalanish mumkin;



**4.yer abadiy ishlab chiqrishi vositasi bo'lib, undan to'g'ri foydalanilganda doimiy ravishda sifati yaxshilanib boradi.**



**Ер билан ажралмас боғлиқ ишлаб чиқариш воситалари ва  
уларнинг иқтисодий аҳамияти**



- Yer bilan ajralmas
- bog'liq ishlab
- chiqarish vositalari

1. Ishlab chiqarish binolari, inshootlari;


• 2. Suv tarmoqlari va inshootlari; 4; ;

• 3. Transport tarmoqlari va inshootlari; ;

• 4. Daraxtzorlar

• 5. Boshqa xýjalik inshootlari

• Jizzax viloyati Forish tumani Tutak qishlog'i hududidan namunaviy loyiha asosida yakka tartibda uy-joy qurilishi uchun ajratilgan yer uchastkasi.



**Жиззах вилояти Фориш тумани Тутак қишлоғи**  
**худудидан намунавий лойиҳа асосида якка**  
**тартибда уй-жой қурилиши лойиҳаси**



O'simlik qoplamasining yo'qolib ketishi yoki keskin o'zgarishi, hayvonlarning hozirgi sahro hududlaridagi va abadiy muzliklar mintaqalaridagi migratsiyasi va halokati to'g'risidagi ko'plab dalillar ma'lum. Mineral xom ashyo va yonilg'iga boy bo'lgan konlarning zahiralari kamayadi, suv resurslarining qayta taqsimlanishi yuz beradi.

Tabiiy resurslarning o'zaro aloqalarini o'rGANISH atrof muhit mahsuldorligiga va foydaliligidagi, qayta tiklanish imkoniyatiga, ahvoliga ijobiy ta'sir etuvchi tadbirlar majmuasini ishlash va amalga oshirish uchun zarur.



► Iqtisodiy nuqtai nazardan yerga, an'anaviy tarzda, inson yordamisiz tabiat tomonidan yetkazilgan mehnat predmetlari to'plami sifatida qaralgan. SHuning uchun amaliy jihatdan hamma vaqt tabiiy muhitning qandaydir elementidan foydalanish (qazilma boyliklar, suvlar, o'simliklar va sh.o'.) yerning sifatiga va tuproq unumdarligiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadi.



Yer resurslarini tiklanishi cheklangan tabiiy resurslar qatoriga kiritish ikkita sababdan kelib chiqadi: bir tomondan kenglik, hudud, yerning usti, quruqlik bilan suv nisbatining xususiy tarzdagi lokal o'zgarishlarini hisobga olmaganda qayta tiklanmaydi; boshqa tomondan - yer turlarining ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish, yaxshilash, tiklash uchun imkoniyatlar amaliy jihatdan cheksizdir.



«Yer, odam – ishlab chiqarish» tizimi elementlarining oqilona o’zaro ta’siri quyidagi printsipial masalalarni yechishni taqoza etadi:

ishlab chiqarishning yer resurslariga salbiy ta’sirini ekologik xavfsiz darajagacha kamaytirish;

yer resurslarining sifat xususiyatlarini ulardan foydalanishda (ayniqsa Qishloq xo’jaligida) maksimal to’la hisobga olish;

odamlarning moddiy va ijtimoiy talablarini to’laroqqondirish maqsadida yerlarni yaxshilash va muhofaza qilish.



Tabiiy resurslar va sharoitlar yig'indisi yerning insoniyat faoliyatining har xil turlariga mosligi darajasini aniqlaydi. Ular bilan aholining ijtimoiy talablarini qondirish imkoniyatlari ham bevosita bog'langan.



Tabiiy muhit omillari qishloq xo'jaligida asosiy rolъ o'ynaydi. O'zbekiston yer fondini tabiiy – qishloq xo'jalik rayonlariga bo'lish ma'lumotlariga asosan, uning 95% hududi issiq va quriq, og'ir va noqulay iqlimli mintaqalarda joylashgan. Qolgan 5% esa tog' mintaqalarida joylashgan. Hududning tabiiy unumdorligi juda past. SHuning uchun respublikamizda yerdan dehqonchilikda foydalanish sug'orishga asoslangan.



Jamiyatning to'xtovsiz o'sib boruvchi talablarini qondirish yer resurslaridan yuqori intensivlikda foydalanishga olib keladi. SHuning uchun tabiiy majmualarni takomillashtirish va rivojlantirish, ularning xo'jalik qiymatlarini oshirish maqsadida atrof muhit omillarining o'zaro ta'sirlarini ilmiy asosda amalga oshirish kerak.



Qayta tiklanmaydigan mineral resurslar uchun ularni tejash va atrof muhitga salbiy ta'sirini cheklab, to'la qayta ishlash printsipial ahamiyatga ega. Qayta tiklanadigan resurslardan foydalanishda ularning foydali xususiyatlarini kengaytirilgan qayta ishlab chiqarishda va berilgan harajatlarda son va sifat ko'rinishida eng ko'p samara olish tamoyiliga rioya qilish kerak.



YErdan oqilona foydalanishni,  
mintaqaviy tabiiy tizimlarni  
rivojlantirishga kompleks yondashishda  
uning ishonchli muhofazasini  
ta'minlashdan ajratib bo'lmaydi. Yerni  
himoyalash tadbirlarining mazmuni yerga  
xo'jalik ta'sirining kuchayishiga mos  
kelishi, tuproqlar unumдорligining  
to'xtovsiz oshishiga yordam berishi  
kerak.



Bizning davlatimizda uzoq vaqt largacha yerdan tekin foydalanish tamoyili amalda bo'ldi, yetishtirilgan mahsulotning asosiy qismi esa davlat tomonidan tasarruf etildi. Bularning hammasi xo'jalik yuritishning normal iqtisodiy mexanizmi yaratilishiga, ob'ektiv baho belgilashga to'sqinlik qildi, korxonalarining yerdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishdan manfaatdorliklarini susaytirdi.



Faqat o'tgan asrning 70 yillaridan boshlab qishloq xo'jaligining unumdor yerlari noqishloq xo'jalikmaqsadlari uchun olinganda qoplama (kompensatsiya) to'lana boshladi, biroq ular to'la hajmida to'lanmadi. Hozirgi O'zbekiston qonunchiligidagi yerdan va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish uchun yer solig'i va ijara haqi shakllarida to'lovlar ko'zda tutilgan.



Yerlarning joylashgan o'rni va tabiiy unumdlorligidagi farqlar natijasida qishloq xo'jaligida paydo bo'ladigan differential yer rentasini, shu jumladan, korxonalarining moliyaviy vositalarini yer resurslarini qayta tiklash va muhofaza qilish uchun jalg etish maqsadida, iloji boricha to'laroq hisobga olish, vazifasi qo'yiladi.






### Yerning o'simliklar bilan qoplanganligi



## Халқ хўжалиги тармоқларидағи вазифалари

Yer xalq xo’jaligining barcha tarmoqlarida korxonalar, tashkilotlar va muassasalarни joylashtirish va rivojlantarisht uchun zamin vazifasini bajaradi. U kon sanoati tarmoғida inson mexnati қaratiladigan jism (mehnat ‘redmeti). Qayta ishlash sanoatida esa zamin (asos) vazifasini bajaradi.



Bu ham davlat iqtisodiyotining juda muhim sohasi bo‘lib, “sanoat sektori” ta’rifiga kiradi. Ushbu yo‘nalishdagi iqtisodiyot tarmoqlari, birinchi navbatda, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va qisman qayta ishlash uchun javobgardir. Ular ikki guruhga bo‘linadi: chorvachilik va o’simlikchilik. Birinchisining tarkibiga quyidagilar kiradi: Chorvachilik. Yirik va mayda chorvachilikni yetishtirish imkonini beradiyaholini go’sht va sut kabi zarur oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash. cho’chqachilik. Ushbu guruh korxonalarini bozorga cho’chqa yog'i va go’sht yetkazib beradi.



Mo‘ynali kiyimlar yetishtirish. Kiyiladigan buyumlar asosan mayda hayvonlarning terisidan tayyorlanadi. Bu mahsulotlarning juda katta qismi eksport qilinadi.

Parranda go‘shti. Ushbu guruhgaga kiruvchi qishloq xo'jaligi korxonalari bozorga parhez go'sht, tuxum va patlarni yetkazib beradi.



# TIQXMMI-MTU



## E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!



Khafizova Zulfiya  
Kholmuratovna



YERBkafedrasi katta  
oqituvchisi



+ 998 71 237 1993



[z.khafizova@tiiame.uz](mailto:z.khafizova@tiiame.uz)



@zulfiyaxafizova